in national legislation. Fraud committed using information technology is evaluated not only as a property crime committed through technical means but also as a complex criminal-legal event that undermines the victim's trust in the digital environment, negatively affects financial stability, and poses a cross-border threat. The article reveals the legal nature of digital fraud and puts forward scientific and practical proposals aimed at improving law enforcement practice.

Keywords: digital environment, fraud, cyber fraud, information technology, criminal law, public danger, qualification, digital evidence, cross-border crime

Kirish

Raqamli muhitda mulkiy munosabatlarning kengayishi firibgarlik jinoyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Ilgari firibgarlik asosan shaxslararo muloqot, hujjat, va'da yoki ishonch asosida sodir etilgan bo'lsa, hozir u bankilovalari, to'lov tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, elektron savdo maydonlari, sun'iy intellekt vositalari va kriptoaktivlar bilan bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Shu sababli firibgarlikning raqamli muhitdagi mohiyati nafaqatan'anaviyaldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish doirasida tushuntirish yetarli emas. Chunki aldov texnik interfeys, identifikatsiya ma'lumoti, bankkarta sirekviziti, soxta akkaunt, *fishing* (soxta sayt) havolasi yoki avtomatlashtirilgan xabar orqali amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasida firibgarlik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, mazkur moddada axborot tizimidan, shu jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik og'irlashtiruvchi belgi sifatida nazarda tutilgan (Republic of Uzbekistan, 1995). Ushbu norma raqamli firibgarlikni huquqiy baholash uchun asos yaratadi, ammo amaliyotda uni og'irlik, kompyuter axborotiga noqonuniy kirish, to'lov vositalaridan g'ayriqonuniy foydalanish yoki fuqarolik-huquqiy majburiyatni bajar maslik holatlaridan farqlash murakkabligicha qolmoqda.

Asosiy qism

Maqolaning maqsadiraqamli muhitda firibgarlik jinoyatining jinoiy-huquqiy mohiyati va ijtimoiy xavfliligini kompleks tahlil qilishdan iborat. Maqolada qonunchilik normalari, sud amaliyoti, xalqaro hisobotlar va doktrinal yondashuvlar o'zaro bog'liq holda o'rganilib, raqamli muhitda firibgarlikning huquqiy mohiyati, obyekt va obyektiv tomonga xos belgilari, jabrlanuvchi irodasining shakllanish mexanizmi, elektron to'lovlar va raqamli xizmatlarga nisbatan ishonchning zaiflashuvi hamda ushbu jinoyatning transchegaraviy xususiyati ochib beriladi.

Raqamli firibgarlikning huquqiy tabiati. Firibgarlikning umumiy huquqiy tabiati aldov yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali o'zganing mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini qo'liga kiritishda namoyon bo'ladi. Uning markaziy belgisi jabrlanuvchining yangilish tasavvuri asosida mulkiy harakatni amalga oshirishidir. Shu jihatdan firibgarlik og'irlikdan farqqiladi, chunki og'irlikda mulk jabrlanuvchi irodasidan tashqari olib qo'yiladi, firibgarlikda esa jabrlanuvchi aldangan holda mulkni o'zi topshiradi yoki mulkka bo'lgan huquqni o'tkazadi. D. Fayzullayev (2024) firibgarlikni o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'ri bilan qonunga xilof ravishda va tekin qo'liga kiritish sifatida izohlaydi.

Raqamli muhitda mulkni topshirish jarayoni ko'p hollarda bevosita shaxsiy muloqot orqali emas, balki axborot tizimida bajariladigan harakatlar orqali amalga oshadi. Jabrlanuvchi *fishing* havolasiga karta ma'lumotlarini kiritishi, bank xodimi sifatida tanishtirgan shaxsga SMS kodni aytishi yoki soxta onlayn savdo maydonchasida to'lovni amalga oshirishi mumkin. Bunday hollarda u o'z harakatini ixtiyoriy deb hisoblaydi, ammo uning irodasi yolg'on axborot ta'sirida shakllangan bo'ladi.

Oliy sud Plenumi axborot texnologiyalaridan foydalanib firibgarlik sodir etishda asosiy farq jabrlanuvchining aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish oqibatida mulkni aybdor egaligiga o'tkazishida ekanini ko'rsatgan. Plenum qarorida bunday jinoyat axborotni o'zgartirish yoki kompyuter tizimiga yolg'on axborot kiritish orqali ham sodir etilishi mumkinligi ta'kidlangan (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2023). Demak, raqamli firibgarlikda shaxs irodasi, axborot tizimidagi operatsiya va texnik vosita o'zaro bog'liq holda baholanishi lozim.

Kvalifikatsiyada hal qiluvchi mezon texnik vositaning mavjudligi emas, balki mulkiy harakat qanday irodaviy sharoitda amalga oshirilganidir. Agar shaxs jabrlanuvchini aldamsdan, uning hisobidan pulni yashirin texnik usulda olib qoysa, bunda firibgarlik emas, boshqa talon-toroj shakli yoki axborot tizimiga noqonuniy kirish belgisi ustuvor bo'lishi mumkin. Agar jabrlanuvchi soxta axborot ta'sirida pulni o'zi otkazsa, firibgarlikning asosiy belgisi saqlanadi.

Raqamli firibgarlikni ta'riflashda uchelement birgalikda aksetish kerak. Birinchi element mulkiy maqsadga qaratilgan qasddir. Ikkinchi element aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish usulidir. Uchinchi element axborot texnologiyalarining jinoyatni amalga oshirish, jabrlanuvchiga ta'sir ko'rsatish yoki mulkiy natijaga erishishda muhim vosita sifatida ishtirok etishidir. Ushbu belgilardan biri mavjud bo'lmasa, qilmishni Jinoyat kodeksining 168-moddasi uchinchi qismi "g" bandi bilan kvalifikatsiya qilish ehtiyotkorlik bilan hal qilinishi lozim.

Doktrinal yondashuvlar va ilmiy ta'rif. Kiberjinoyatchilik nazariyasida raqamli firibgarlikni tushunishga oid yondashuvlar turlicha. D. Uoll kiberjinoyatlarni kompyuter tizimlarining yaxlitligiga qarshi jinoyatlar, kompyuter yordamida sodir etiladigan jinoyatlar va kompyuter kontentiga qarshi jinoyatlarga ajratadi hamda ushbu tasnifda firibgarlikni kompyuter yordamida sodir etiladigan jinoyatlar qatorida ko'radi (Wall, 2007). P. Graboskiy esa kiberfiribgarlikni an'anaviy jinoyatning yangi vositalar yordamida sodir etilayotgan shakli sifatida baholaydi (Grabosky, 2001). Bu yondashuvlar firibgarlikning mulkiy manfaat, qasd, aldov va jabrlanuvchi irodasining yangilash shakllanishi bilan bog'liq asosiy mohiyati saqlanib qolishini ko'rsatadi.

Ayni paytda raqamli muhit firibgarlikni miqyos, tezlik, latentlik, transchegaraviylik va dalillarni yashirish imkoniyati bo'yicha yangi darajaga olib chiqadi. N. Lopashenko (2019) kompyuter tizimini aldash tushunchasi klassik firibgarlikka to'liq mos kelmasligini asoslaydi. Kompyuter inson kabi adashmaydi, ammo axborot tizimiga kiritilgan yolg'on ma'lumot insonning huquqiy ahamiyatga ega harakatini yuzaga keltirishi yoki avtomatlashtirilgan operatsiya ni ishga tushirishi mumkin. Shu bois huquqiy baholashda aldangan subyekt axborot tizimi orqali harakat qilayotgan inson yoki ushbu tizimga ishonch bildirgan mulkegasi hisoblanadi.

A. Komarov (2011) internet tarmog'idagi firibgarlikni insonni yoki kompyuter tizimini aldash orqali sodir etiladigan jinoyatlar majmuasi sifatida ta'riflaydi. A. Pobegaylo (2018) kiberfiribgarlikni an'anaviy firibgarlikning axborot tizimlari orqali sodir etilishi bilanгина cheklamasdan, uni yangi turdagi mulkiy zarar yetkazish shakllari va xakerlik hujumlari bilan ham bog'laydi. D. Payziyev va A. Zokirov (2024) esa kiberfiribgarlikni bank kartalari, to'lov rekvizitlari, parollar va kompyuter tizimlarini buzish orqali sodir etiladigan qilmish sifatida izohlaydi. Mazkur qarashlar raqamli muhitdagi firibgarlikning amaliyotda keng tarqalgan usullarini yoritadi, biroq uning asosiy jinoyat-huquqiy belgisi bo'lgan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish mezonini yetarli darajada aniq chegaralab bermaydi.

Ilmiy jihatdan raqamli firibgarlikni usullar royxati orqali emas, balki jinoyat natija va irodaviy mexanizm orqali belgilash to'g'riroqdir. D. Zikov kiberfiribgarlikni kompyuter texnologiyalari yordamida, ishonchni suiiste'mol qilish orqali o'ziga shaxsning pul mablag'larini o'zlashtirish, uning mulkiga zarar yetkazish va ushbu mulkka ega bo'lish bilan bog'liq qilmish sifatida ta'riflaydi (Zykov, 2002). Ushbu yondashuv firibgarlikning mulkiy natijasini aniqroq aks ettiradi. Shu asosda raqamli muhitda firibgarlik axborot texnologiyalari, axborot tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari yoki raqamli identifikatsiya vositalaridan foydalangan holda aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali o'zganing mulkini yoxud mulkka bo'lgan huquqini qonunga xilof ravishda o'ziga kiritishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmish sifatida ifodalanishi mumkin.

Ijtimoiy xavflilik va texnologik omillar. Raqamli firibgarlikning ijtimoiy xavfliligini faqat yetkazilgan moddiy zarar bilan o'lchash to'g'ri emas. U jamiyatning raqamli xizmatlarga, elektron bank tizimiga, onlayn savdoga, davlat xizmatlari portaliga va umuman raqamli transformatsiyaga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. AQSh Federal tergov byurosining 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, AQSHda 859 mingdan ortiq kiberjinoyat shikoyati qayd etilgan va yetkazilgan zarar 16,6 milliard AQSH dollarini tashkil etgan (Federal Bureau of Investigation, 2025). *Cybersecurity Ventures* hisob-

kitoblarida esa global kiberjinoatchilik zarari 2025-yilga kelib yillik 10,5 trillion AQSH dollariga yetishi prognoz qilingan (Morgan, 2025). Bu ma'lumotlar raqamli firibgarlikni nafaqat milliy, balki xalqaro iqtisodiy xavf sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Interpolning *Global Financial Fraud Assessment* hisobotida 2023-yilda firibgarlar jahon bo'yicha jabrlanuvchilardan 1 trillion dollardan ortiq mablag'ni o'g'irlagani qayd etilgan (INTERPOL, 2024). Bunday jinoyatlar ko'pincha vazifalar taqsimlangan guruhlar tomonidan sodir etiladi. Bir shaxs fishing sahifasini tayyorlaydi, ikkinchisi ma'lumotlarni yig'adi, uchinchi pulni tranzit hisoblar orqali o'tkazadi, boshqa sikriptoaktivlar yordamida izniyashiradi. Shu sababli ijtimoiy xavflilikni baholashda moddiy zarar bilan birga uyushganlik darajasi va transchegara viyomaliya viyyo malishlar ham hisobga olinishi kerak.

O'zbekistonda ham raqamli firibgarlikning o'sishi jiddiy tendensiyaga aylangan. Kiber xavfsizlik markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda 12 milliondan ortiq kiberhujum urinishi qayd etilgan (Kun.uz, 2025). B. Mamajonov (2025) keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda axborot texnologiyalaridan foydalanib 18 toifa bo'yicha 863 ta jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 62 toifa bo'yicha 58800 ta jinoyatni tashkil etgan. Shu manbada 2024-yilda mamlakatdagi barcha jinoyatlarning 44,4 foizi kiberjinoatchilik hisoblangani va ularning asosiy qismi bank kartalariga bog'liq bo'lgani qayd etilgan. Bu ma'lumotlar raqamli firibgarlikning milliy jinoyatchilik tuzilmasidagi o'rnini ko'rsatadi.

Raqamli firibgarlikning ijtimoiy xavfliligi ushbu jinoyatning yuqori darajada yashirin sodir etilishi va ko'p hollarda o'z vaqtida aniqlanmay qolishi bilan ham bog'liq. Jabrlanuvchilar uyat, ishonchsizlik, mablag'ni miqdorining kichikligi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlardan natija bo'lmazligi haqidagi tasavvur sababli murojaat qilmasligi mumkin. Jahon iqtisodiy forumi hisobotida dunyo aholisining katta qismi kiberfiribgarlikta 'siriga duchor bo'layotgani qayd etilib, bu holat ushbu jinoyat ommaviy kundalik xavfga aylanganini ko'rsatadi (World Economic Forum, 2024). Shuning uchun profilaktika jazoni kuchaytirish bilan cheklanmasdan, raqamli savodxonlik, tezkor ogohlantirish va xavfli operatsiyalarni avtomatik bloklash tizimlari bilan bog'lanishi kerak.

Jinoyat usullarining o'zgarishi mazkur xavfni yanada kuchaytiradi. Fishing sahifalari, soxta bank operatorlari, qalbaki investitsiya platformalari, marketpleyslardagi aldov sxemalari, vishing (telefon qo'ng'iroqlari yordamida amalga oshiriladigan firibgarlik), farming (soxta saytlarga yo'naltirish), spufing (telefon raqam yoki e-mail manzilini soxtalashtirish), dipfeyk (SI yordamida ovoz va yuzni soxtalashtirish) texnologiyalari, kriptoaktivlar va sun'iy intellekt vositalari raqamli firibgarlikni sodir etishda o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanmoqda. S. Turayev internet tarmog'ida jinoyat sodir etish ko'p kuch va xarajat talab etmasligi, kompyuter, dasturiy ta'minot vositalari va axborot tarmog'iga ulanishning o'zi ko'p hollarda yetarli bo'lishini ta'kidlaydi (Turaev, 2022). Bu holat raqamli firibgarlikning ommalashuviga xizmat qiluvchi texnologik omillardan biri hisoblanadi.

Vishing misolida raqamli firibgarlikning psixologik tomoni yaqqol ko'rinadi. Sh. Jumaboyev (2024) firibgarlik jinoyatlarining asosiy turlaridan biri sifatida vishing usulini ko'rsatib, uning mohiyati jinoyatchilar tomonidan bank xodimlari nomidan qo'ng'iroqlar amalga oshirilishi, shaxsiy ma'lumotlar hamda bank kartalari rekvizitlarini qo'lga kiritish bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Bunda jabrlanuvchining texnik bilimsizligi bilan birga shoshilinch qaror qabul qilish, qo'rquv, bankka ishonch va mablag'ni saqlab qolish istagi ham ishga solina di. Jahon iqtisodiy forumining Global Cybersecurity Outlook 2025 hisobotida 2023-yilning birinchi choragidan 2024-yilning birinchi choragigacha darknetda dipfeyk vositalari savdosining 223 foizga oshgani qayd etilgan (World Economic Forum, 2025). Bu holat sun'iy intellekt va dipfeyk texnologiyalari raqamli firibgarlik xavfini amaliyotda kuchaytirayotganini ko'rsatadi.

Kvalifikatsiya va huquqni qo'ldash muammolari. Raqamli firibgarlikni kvalifikatsiya qilishda birinchi muammo axborot texnologiyasining jinoyat tarkibidagi rolini to'g'ri aniqlash bilan bog'liq. Axborot texnologiyasidan har qanday foydalanish Jinoyat kodeksining 168-moddasi uchinchi qismi "g" bandini qo'ldash uchun yetarli asos bo'la olmaydi. Texnik vosita aldash, ishonchni suiiste'mol qilish yoki mulkiyatiga erishish jarayonida muhim usul sifatida ishtirok etgan taqdirdagina ushbu

og'irlashtiruvchi belgi haqida so'z yuritish mumkin. Masalan, telefon orqali qarzni qaytarish haqida yolg'ion va'da berish har doim ham raqamli firibgarlik sifatida baholanmaydi. Biroq bank xodimi sifatida qo'ng'iroq qilib, jabrlanuvchidan karta ma'lumotlari yoki tasdiqlash kodini olish hamda shu orqali pul mablag'larini o'tkazishga erishish axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan firibgarlik belgilarini yuzaga keltiradi.

Oliy sud Plenumi kompyuter texnikasi, aloqa vositasi, planshet yoki boshqa texnik qurilmalar yordamida manipulyatsiya qilish orqali mulkni aldash yoki bilan talon-toroj qilish raqamli firibgarlik sifatida baholanishini ko'rsatgan (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2023). Biroq bu tushuntirishni qo'llashda jabrlanuvchining aldangan irodasi har bir ishda alohida isbotlanish zarur. Aksholda, axborot texnologiyasining mavjudligi avtomatik ravishda og'irlashtiruvchi belgiga aylanib qoladi.

Ikkinchi muammo fuqarolik-huquqiy munosabat bilan firibgarlikni farqlashdan iborat. Onlayn savdo, xizmat ko'rsatish, investitsiya, elektron qarz va sheriklik munosabatlarida majburiyat bajarilmasligi holatlari tez-tez uchraydi. Biroq har qanday majburiyatni bajarmaslik firibgarlik hisoblanmaydi. Qilmish firibgarlik sifatida baholanishi uchun shaxsda mulkni qo'lga kiritish niyati boshida noq mavjud bo'lishi, u jabrlanuvchini atayin dashtirishi va shu orqali mulkiyatiga erishishi kerak. Shu sababli subyektiv tomonni, ayniqsa dastlabki qasdni isbotlash kvalifikatsiyada hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi muammo raqamli dalillarning yetarliligi bilan bog'liq. Screenshot, chat yozishmasi, elektron chek, bankilova sidagi operatsiya tarixi yoki telefon qo'ng'irog'ini yozuv alohida holda jinoyatni isbotlash uchun yetarli bo'lmamasligi mumkin. Ularning kelib chiqishi, o'zgartirilmaganligi, qaysi qurilmada yaratilgani, qaysi IP manzildan kirilgani, qaysi akkauntga bog'liqligi va tranzaksiya zanjiri tekshirilishi lozim. A. Tashtemirov (2024) dastlabki ma'lumotlarni to'g'ri tasniflash jinoyat ishini qo'zg'atish masalasi ni haletishda, voqea tavsifi, sodir etish va yashirish usullari hamda jinoyatning shaxsi haqida asosli gumonlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi.

To'rtinchi muammo transchegaraviy xususiyat bilan bog'liq. Jinoyatchi, server, jabrlanuvchi va pul mablag'larini boshqa-boshqa davlatlarda bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda milliy qonunchilikning o'zi yetarli emas. Xalqaro hamkorlik, tezkor ma'lumot almashish, elektron dalillarni saqlab qolish va jinoydaroma dani qaytarish mexanizmlari zarur. BMT Bosh Assambleyasining 2024-yil 24-dekabr dagi 79/243-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiya elektron dalillar va transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi hamkorlik bo'yicha muhim huquqiy yommalish sifatida baholanadi (United Nations General Assembly, 2024).

Takomillashtirish yommalishlari. Raqamli muhitda firibgarlikka qarshi samarali kurashish uchun jinoyat huquqi, protsessual huquq, moliyaviy nazorat va kiberxavfsizlik choralari uyg'unlashtirilishi kerak. Avvalo, Jinoyat kodeksida axborot texnologiyalaridan foydalanib firibgarlik sodir etish belgisini qo'llash mezonlari aniqlashtirilishi lozim. Bu mezonlar texnik vositaning jinoyatdagi rolini, jabrlanuvchi irodasining aldash orqalishakllanganini va mulkiyatiga erishilganini qamrab olishi zarur.

Sud amaliyotini birxillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Firibgarlik, og'irlik, kompyuter axborotiga noqonuniy kirish va fuqarolik-huquqi nizoo'rtasidagi farqlar bo'yicha qo'shimcha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak. Ayniqsa onlayn savdo, soxta investitsiya, bank kartasi rekvizitlarini qo'lga kiritish, elektron qarz va kriptoaktivlar bilan bog'liq holatlar bo'yicha yagona yondashuv zarur.

Raqamli dalillar bilan ishlash standartlarini kuchaytirish alohida yommalish bo'lishi lozim. Elektron yozishmalar, tranzaksiya ma'lumotlari, IP manzillar, qurilma identifikatorlari, SIM karta ma'lumotlari, bank log (tizim qayd)lari va platforma ma'lumotlari protsessual jihatdan to'g'ri qayd etilmasa, keyinchalik ularni dalil sifatida baholashda muammo kelib chiqadi. Shuning uchun tergov organlari, prokurorlar va sudlar uchun raqamli dalillarni olish, saqlash, tekshirish va baholash bo'yicha maxsus metodik tavsiyalar zarur.

Jinoydaromadlarni tezkor aniqlash va qaytarish mexanizmlari ham kuchaytirilishi kerak. Raqamli firibgarlikda vaqt hal qiluvchi omil hisoblanadi. Pul bir necha daqiqa ichida bir necha hisobdan o'tib

ketishi, elektron hamyonga yoki kriptoaktivga aylantirilishi mumkin. Shuning uchun banklar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida tezkor aloqa kanali, shubhali operatsiyalarni vaqtincha to'xtatish tartibi va jabrlanuvchilarning muvofiqsizlik bilan ko'rib chiqish mexanizmita komilla shtirilishi lozim.

Profilaktika ham faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga yuklanmasligi kerak. Banklar, to'lov tashkilotlari, telekommunikatsiya operatorlari, internet platformalar va ta'lim muassasalari ham jinoyatlarning oldini olishda ishtirok etish zarur. Operatsiyalarning xavf darajasini avtomatik baholash, shubhali tranzaksiyalarni vaqtincha bloklash, foydalanuvchiga tushunarli ogohlantirish berish, voyaga yetmaganlar va keksa shaxslar uchun alohida himoya mexanizmlarini yaratish amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa

Raqamli muhitda firibgarlik an'anaviy firibgarlikning asosiy belgilarini saqlab qolgan holda axborot texnologiyalarining rivojlanishiga oshirilishi, jabrlanuvchilarning o'zlariga raqamli belgilar orqali ta'sir ko'rsatishi, transchegaraviy xususiyat kasbatishi va yuqori ta'limning o'ziga bog'liqligi bilan farqlanadi. Uni faqat texnik vosita yordamida sodir etilgan oddiy mulkiy jinoyat sifatida baholash to'g'ri emas.

Raqamli firibgarlikning jinoyat-huquqiy mohiyati uch asosiy belgi bilan ifodalanadi. Birinchisi, o'zining mulkiy o'g'irlik bilan bog'liq bo'lgan huquqini qonunga xilof ravishda qo'lga kiritishga qaratilgan qasd. Ikkinchisi, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali jabrlanuvchilarning shaxsini anglash shakllantirish. Uchinchisi, axborot texnologiyalarining jinoyatni sodir etishda muhim vosita, muhit yoki ta'sir mexanizmi sifatida ishtirok etishi.

Ijtimoiy xavflilik nuqtayinazari dan, raqamli firibgarlik moddiy zararning kattaligi, jabrlanuvchilarning ommaviyligi, ijtimoiy zaif guruhlarga ta'siri, raqamli xizmatlarga ishonchni pasaytirishi, jinoyat izlarini yashirish imkoniyati va uyushgan transchegaraviy guruhlar bilan bog'liqligi sababli yuqori xavf tug'diradi. Shuning uchun ushbu jinoyatga qarshi kurashishda jazo choralarini bilan birga raqamli dalillar standarti, tezkor moliyaviy bloklash, xalqaro hamkorlik, sud amaliyotini birxillashtirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish choralarini ham muhim hisoblanadi.

Asosiy taklif shundan iboratki, huquqni qo'ldash amaliyotida axborot texnologiyalaridan foydalanish belgisi avtomatik ravishda og'irlashtiruvchi holat sifatida qabul qilinmasligi kerak. Har bir ishda texnik vosita aldash mexanizmi va mulkiyatiga bilan qanday bog'langanini aniqlanishi lozim. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining 168-moddasi uchinchi qismi "g" bandini qo'ldash bo'yicha aniq mezonlar, raqamli dalillarni baholash metodikasi va raqamli firibgarlikning eng ko'p uchraydigan turlari bo'yicha yagona amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

REFERENCES

- Fayzullayev, D. O. (2024). Kiberjinoyatchilikning kelib chiqishi va rivojlanishi tarixi [The history of the origin and development of cybercrime]. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(6).
- Federal Bureau of Investigation. (2025). *2024 Internet crime report*. Internet Crime Complaint Center.
- Grabosky, P. (2001). Virtual criminality: Old wine in new bottles. *Social & Legal Studies*, 10(2), 243–249.
- INTERPOL. (2024). *Global financial fraud assessment*. International Criminal Police Organization.
- Jumaboyev, Sh. F. (2024). Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari tomonidan firibgarlik jinoyatlarining oldini olish taktikasi [Tactics of prevention of fraud crimes by operational units of internal affairs bodies]. *Innovation Academy*, 66–69.
- Komarov, A. A. (2011). *Kriminologicheskie aspekty moshennichestva v globalnoy seti Internet* [Criminological aspects of fraud in the global Internet network] (Abstract of Candidate thesis). Saratov State Academy of Law.
- Kun.uz. (2025, February 3). *Over 12 million cyberattacks recorded in Uzbekistan in 2024*. <https://kun.uz/en/news/2025/02/03/over-12-million-cyberattacks-recorded-in-uzbekistan-in-2024>

Lopashenko, N. A. (2019). Kompyuternoe moshennichestvo: novoe slovo v ponimanihi shcheniya ili oshibka zakonodatel'ya [Computer fraud: A new word in understanding theft or a legislator's mistake]. *Bulletin of the Saratov State Law Academy*, (2), 156–163.

Mamajonov, B. (2025, May 29). O'zbekistonda 2021–2024-yillarda banklar va fuqarolar kiberjinoyatlardan 1,9 trln so'm zarar ko'rdi [In Uzbekistan, banks and citizens suffered losses of 1.9 trillion soums from cybercrime in 2021-2024]. *Gazeta.uz*. <https://www.gazeta.uz/uz/2025/05/29/kiberjinoyat/>

Morgan, S. (2025). *2025 cybersecurity almanac: 100 facts, figures, predictions and statistics*. Cybersecurity Ventures. <https://cybersecurityventures.com>

Payziev, D. Yu., & Zokirov, A. B. (2024). Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan firgarlik jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi [The issue of liability for fraud crimes committed using information technologies]. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(6).

Pobegaylo, A. E. (2018). *Borba s kiberprestupnostyu [The fight against cybercrime]*. University of the Prosecutor's Office of the Russian Federation.

Republic of Uzbekistan. (1995). *Criminal Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-111453>

Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2023, June 23). *On judicial practice on cases related to fraud (Resolution of the Plenary Session No. 17)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-6523582>

Tashtemirov, A. A. (2024). Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firgarlik jinoyatlarining tavsifi va omiga xos xususiyatlari [Description and characteristics of fraud crimes committed using information technologies]. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 3(6), 25–32.

Turaev, S. A. (2022). Crimes committed using the Internet: Causes and conditions. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(4), 107–118.

United Nations General Assembly. (2024, December 24). *United Nations Convention against Cybercrime (Resolution 79/243)*. United Nations. <https://www.unodc.org/unodc/cybercrime/convention/home.html>

Wall, D. (2007). *Cybercrime: The transformation of crime in the information age*. Polity Press.

World Economic Forum. (2024). *Disrupting cybercrime networks: A collaboration framework*. WEF.

World Economic Forum. (2025). *Global cybersecurity outlook 2025*. WEF.

Zykov, D. A. (2002). *Viktimologicheskie aspekty preduprezhdeniya kompyuternogo moshennichestva [Victimological aspects of computer fraud prevention]* (Candidate dissertation). Vladimir Law Institute.

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.